

7-SINF. O‘ZBEKISTON TARIXI
CHSB-1.

IV variant. **Sana:** _____
Sinf _____ **O‘quvchining F.I.SH.** _____

1. Ilk o‘rta asrlarda qishloqning dehqonlarga qaram aholisi qanday nomlangan? (Bilish–2,5 ball)

- A) dehqon B) kashovarz
C) kadivar D) chokar

2. Ilk o‘rta asrlarda Xorazm davlatining poytaxti hisoblangan shaharni toping. (Bilish–2,5 ball)

- A) Politimet C) Termiz
B) Ershi D) Tuproqqal’a

3. Qachon Turk xoqonligi Sharqiy va G‘arbiy turk xoqonligiga bo‘linib ketgan? (Bilish–2,5 ball)

- A) VI asrning 50-yillarida B) VI asrning 60-yillarida
C) VI asrning 80-yillarida D) VI asrning 70-yillarida

4. V asrda barpo etilgan kanallarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1) Zog‘ariq; 2) Bo‘zsuv; 3) Darg‘om; 4) Afshona; 5) Hovuzixon; 6) Parak.

- A) 1, 2, 3 B) 4, 5, 6
C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun	Ha	Yo‘q
1	Afrig‘ davrida Kat qayta tiklanib, uning yonida joylashgan Alfir qasri ichida shoh o‘ziga yangi saroy qurdirgan.		
2	Afrig‘iy podshohlari oldi tomoniga burgut, orqa tomoniga lochin tasvirlari tushirilgan kumush tangalar zarb etib, ichki va tashqi savdo munosabatlarida mustaqil bo‘lib olgan.		
3	Xorazmda VIII asrgacha moniylik dinining ta’siri kuchli bo‘lganligi sababli zardushtiylik dini vakillari kamchilikni tashkil etgan.		
4	Mobadlar tarbiyalanuvchilarga zardushtiylikning o‘git-pandlari, ma’rifati hamda tarbiyasi hayotning eng muhim tayanchi ekanligini uqtirishgan.		

- A) yo‘q, yo‘q, ha, ha
 B) ha, yo‘q, yo‘q, ha
 C) yo‘q, ha, ha, yo‘q
 D) ha, ha, yo‘q, yo‘q

6. Quyidagi hukmdorlarni ular hukmronlik qilgan davlatlar bilan moslashtiring. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1) Afrig‘; 2) Istami; 3) Pero‘z; 4) Katulf.

a) Xorazm davlati; b) Eftaliylar davlati; c) Turk xoqonligi; d) Sosoniylar davlati.

- A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a
 B) 1-a, 2-c, 3-d, 4-b
 C) 1-c, 2-b, 3-a, 4-d
 D) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

7. Sug‘d tili xalqaro savdo tili sifatida foydalanilgan hududlarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1) Toshkent; 2) Yettisuv; 3) Xorazm; 4) Farg‘ona; 5) Poykand; 6) Sharqiy Turkiston, 7) Xitoy; 8) Hindiston.

- A) 2, 4, 6, 8 B) 2, 4, 6, 7
 C) 1, 3, 5, 7 D) 1, 3, 5, 8

8. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo‘q” deb javob bering. (Qo‘llash – 4,5 ball)

Nº	Mulohaza uchun	Ha	Yo‘q
1	Naxshab vohasidagi Zahoki Maron ilk o‘rta asrlar davrining o‘ziga xos me‘morchilik namunalaridan bo‘lgan.		
2	Naxshab vohasida V-VI asrlarda orqa tomonida tik turgan kamonchi tasviri tushirilgan kumush tangalar chiqarilgan.		
3	Turk xoqonligi va sosoniylarning harbiy ittifoqi Istaming shoh Xusrav I Anushervonga kuyov bo‘lishi orqali mustahkamlangan.		
4	Turk xoqonligi hokimiyati urug‘-aymoqchilik udumlariga tayangan harbiy-ma‘muriy boshqaruvga asoslangan.		


- A) yo‘q, ha, yo‘q, ha
 B) ha, yo‘q, ha, yo‘q
 C) yo‘q, ha, ha, yo‘q
 D) ha, yo‘q, yo‘q, ha

9. V asrda ham Toshkent vohasi (a) va Samarqand viloyati janubiy tumanlarini (b) suv bilan ta‘minlagan kanallarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) a-Politimet, b-Yaksart
 B) a-Bo‘zsuv, b-Darg‘om
 C) a-Bo‘zsuv, b-Zog‘ariq

D) a-Qurama, b-Politimet

10. Quyidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Eyler-Venn diagrammasiga mos keladigan javobni toping. (Mulohaza –5,5 ball)



- a) shaharda balandligi 25 metr bo'lgan ko'p minorali qasr mavjud bo'lgan;*
- b) 12 metrli budda haykali topilgan;*
- c) qal'aning tarxi tahminan 20 gektarni tashkil etgan;*
- d) shahar mustahkam mudofaa istehkomlariga va turar joylarga ega bo'lgan;*
- e) shahar ichida ibodatxona mavjud bo'lgan;*
- f) shahar maydoni 18 gektarni tashkil etgan.*

- A) I-a, e; II-c, d; III-b
- B) I-a, c; II-d, f; III-e
- C) I-a, f; II-c, d; III-e
- D) I-d, e; II-a, f; III-b